“O‘ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TIZIMINING HOLATI HAQIDAGI HISOBOTNI SHAKLLANTIRISH VA TAQDIM ETISH REGLAMENTI

“O‘ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI

Toshkent

So‘zboshi

1 Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati tomonidan ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN

2 “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJning 2026.07.09 dagi 215-sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN

3 BIRINCHI BOR KIRITILGAN

Tasdiqlayman

“O‘zbekiston MET” AJ
boshqaruvi raisi

A.A. Nazirov

“O‘ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TIZIMINING HOLATI HAQIDAGI HISOBOTNI SHAKLLANTIRISH VA TAQDIM ETISH REGLAMENTI

Amalga kiritish sanasi 2026.10.09.

1 Umumiy qoidalar

1.1 Ushbu Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Reglament (keyingi o‘rinlarda – Reglament) “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) ichki hujjati bo‘lib, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida hisobotlarni shakllantirish va taqdim etish tartibini belgilaydi va mas’ul shaxslarga bo‘lgan talablarni o‘rnatadi.

1.2 Mazkur Reglamentni amalga oshirish, hisobini yuritish va nazorat qilish uchun Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati mas’uldir.

1.3 Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimining amal qilishi va rivojlanishi bo‘yicha hisobotlarni shakllantirishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tadbirlar rejasi bilan o‘rnatilgan tadbirlar va taomillarni amalga oshirish ustidan nazorat qilish, shuningdek, Jamiyat, tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini buzish holatlarini aniqlash;

- korupsiyaviy xavflarni pasaytirish uchun Jamiyatning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimining samaradorligini nazorat qilishlari uchun

Jamiyatning boshqaruvi va Kuzatuv kengashini korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi haqida habardor qilish.

2 Atamalar va qisqartmalar

Jamiyat – “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati.

Tizim tashkilotlari – Jamiyat tasarrufidagi filiallar shuningdek, qabul qiladigan qarorlarini Jamiyat belgilab berish imkoniyati bo‘lgan boshqa tashkilotlar.

Jamiyat xodimlari – ushbu Reglamentning maqsadlari uchun mazkur tushuncha o‘zlari bilan tuzilgan mehnat shartnomalari asosida o‘z lavozim vazifalarini bajaradigan jamiyatning xodimlari, o‘z majburiyatlarini jamiyat bilan tuzilgan fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnomalar asosida bajaradigan ishchilar, shuningdek, jamiyat boshqaruvi a’zolarini o‘zi ichiga oladi.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi – korrupsion harakatlarga qarshi kurashishga qaratilgan Jamiyatning korrupsiyaga qarshi siyosatida ko‘rsatilgan o‘zaro aloqador elementlar tizimi.

Korrupsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qogoz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy ulushlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish.

3 Hisobot turlari va uni taqdim etish davriyligi

3.1 Hisobotni taqdim etish uchun quyidagi hisobot turlari shakllantiriladi:

- Jamiyat va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi hisoboti Jamiyat Boshqaruvi va Kuzatuv kengashi uchun ushbu Reglamentning 4-bo‘limida ko‘rsatilgan tartibda tuziladi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish taomillariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish natijalari bo‘yicha hisobot Jamiyat boshqaruvi uchun korrupsiyaga qarshi kurashish taomillarining samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyotida ko‘zda tutilgan tartib va muddatlarda tuziladi;

- korrupsiyaviy xavflarning birlashgan xaritasi Jamiyat boshqaruvi va Kuzatuv Kengashi uchun korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va baholash bo‘yicha Uslubiyotda nazarda tutilgan tartibda tuziladi.

3.2 Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha zaruratga qarab, aynan Jamiyat boshqaruvi, Kuzatuv kengashi talablari bilan, davlat organlari, korxona va muassasalar, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati vakillarining so‘rovlari bo‘yicha boshqa hisobot shakllantirilishi mumkin. Bunda, axborotni ochiqlash tartibi Jamiyat boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

4 Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi hisoboti

4.1 Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimining hisoboti Jamiyat va uning filiallarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi holatini monitoring va nazorat qilish maqsadlari va korrupsiyaga qarshi tadbirlar rejasini bajarishni ta’minlash hamda uning samarali amal qilishi, shu jumladan bu bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni hal qilish maqsadida tuziladi.

4.2 Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimining yarim yillik hisobotlari 10-iyulga qadar, yillik hisobotlari 10-yanvardan kechiktirmasdan Jamiyatning boshqaruvi va Kuzatuv kengashiga taqdim etiladi.

4.3 Jamiyat filiallarida faoliyat yuritayotgan komplayens-nazorat xodimlari zaruratga qarab tegishligicha rahbarlarini va ishchilarini jalb etgan

holda korrupsiyaga qarshi kurashish asosiy vazifalari va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimining hisobotlarini tuzadilar va yarim yillik hisobotlarni 3-iyulga qadar, yillik hisobotlarni 3-yanvardan kechiktirmasdan Jamiyatning Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmatiga taqdim etadi.

Jamiyat filiallarida faoliyat yuritayotgan komplayens-nazorat xodimlari ushbu Reglamentning A-ilovasiga muvofiq umumiy hisobotini har chorak to‘gagach, keyingi oyning 3-sanasidan kechiktirmasdan Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmatiga taqdim etib boradi.

4.4 Jamiyat va uning filiallarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimining umumiy hisobotni tuzishda, Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas’ul bo‘lgan jamiyat rahbarlari va filiallarining xodimlari va rahbarlaridan zarur hujjatlar, tushuntirish hamda statistikani so‘rash va olish huquqiga egadirlar.

4.5 Jamiyatning Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati boshlig‘i Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimining umumiy hisobotini imzolaydi va yarim yillik hisobotni 10-iyulga qadar, yillik hisobotlari 10-yanvardan kechiktirmasdan Jamiyat boshqaruvi va Kuzatuv kengashiga kiritadi. Qo‘shimcha ravishda hisobotga, e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan asosiy ma’lumotlar va takliflar to‘g‘risidagi ma’lumotnoma ilova qilinishi mumkin.

5 Yillik hisobot

5.1 Jamiyatning Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati boshlig‘i yillik hisobotlarni har yili 10-yanvarga qadar Jamiyat boshqaruvi va Kuzatuv kengashiga kiritadi.

5.2 Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimining yillik hisoboti ushbu Reglamentning 4-bo‘limida ko‘rsatilgan tartibda tuziladi.

5.3 Zaruratga qarab, Jamiyatning Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati rahbari Boshqaruv va yoki Kuzatuv kengashi majlislarida taqdimot qilish uchun,

ushbu Reglamentning 5.1-bandida ko‘rsatilgan har yillik hisobotning taqdimoti va ma’ruzasini tayyorlaydi.

6 Hujjatlarni saqlash

6.1 Ushbu Reglamentga muvofiq tayyorlangan barcha hisobotlar, shu jumladan filiallardan olingan hisobotlar, shuningdek, ilovalaridagi tasdiqlovchi hujjatlar qonunchilikda belgilangan muddat davomida, biroq 5 (besh) yildan kam bo‘lmagan muddatda Jamiyatning Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmatida majburiy tarzda saqlanishi kerak.

A-ilova
(Majburiy)

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimining umumiy hisobot shakli

Sana: _____

Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmatining rahbari

_____

(F.I.SH.)

_____

(imzo)

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ va filiallarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimining amal qilishi to‘g‘risidagi hisoboti

I. Korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlar rejasining bajarilishi to‘g‘risida umumiy ma’lumot

Jamiyat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining amalga oshirilgani to‘g‘risidagi qisqa ma’lumot, shu jumladan markaziy apparat va filiallar kesimida korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini amalga oshirgan bo‘linmalar sonini ko‘rsatish zarur.

Markaziy apparat va filiallar kesimida korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarni amalga oshirmagan bo‘linmalar ko‘rsatiladi, shuningdek, hisobotga ilovada ularning nomi, amalga oshirilmagan tadbirlar va qisqacha asosiy sabablarini alohida ko‘rsatish lozim.

II. Siyosat va taomillar

Jamiyat va filiallarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha sohalarni tartibga soluvchi va hisobot davrida markaziy apparat va filiallar kesimida tatbiq etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga taalluqli bo‘lgan normativ-huquqiy va ichki hujjatlar (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqnomalar va shu kabilar)ni ko‘rsatish lozim.

III. Xavf-xatarlarni baholash

Jamiyat tomonidan xavf-xatarlarni baholash amalga oshirilganligi to‘g‘risidagi axborot, shu jumladan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirgan va o‘zlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar matritsasini yangilagan markaziy apparat va filiallar kesimida ko‘rsatish kerak;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirmagan filiallar soni viloyatlar, filiallar kesimida ko‘rsatiladi, shuningdek, hisobotga ilovada ularning nomi va ularning bajarilmaganligi sabablari qisqacha ko‘rsatiladi;

Baholash jarayonida yangi aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar markaziy apparat va filiallar kesimida ko‘rsatiladi. Shuningdek, hisobot davrida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish bo‘yicha taklif etilgan va amalga oshirilgan tadbirlar qayd etiladi;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning toifalar bo‘yicha nisbati (yuqori, o‘rta, past) filiallar kesimida ko‘rsatiladi;

Filiallar kesimida Jamiyat uchun yuqori bo‘lgan qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar, shuningdek, ko‘rsatilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish uchun taklif etilayotgan tadbirlarni ko‘rsatish lozim (mavjud bo‘lgan taqdirda).

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish taomillari

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish

Manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyalangan va tartibga solingan holatlari soni, shu jumladan, ishga qabul qilish, har yillik deklaratsiyalash jarayonida (mavjud bo‘lgan taqdirda), markaziy apparat va filiallar kesimida ko‘rsatiladi;

Jamiyatda manfaatlar to‘qnashuvini markaziy apparat va filiallar kesimida manfaatlar to‘qnashuvining yillik deklaratsiyasi tartib-taomillaridan o‘tgan xodimlarning umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbati, shuningdek, deklaratsiyalangan va tartibga solingan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari qayd etiladi;

Jamiyat bo‘yicha rejalashtirilgan manfaatlar to‘qnashuvining har yillik deklatsiyalanadigan manfaatlar to‘qnashuviga nisbatan ko‘rsatkichlari bajarilmagan filiallar kesimida tahliliy ma’lumotlarni keltirish kerak *(masalan, manfaatlar to‘qnashuvini barcha rahbarlar deklaratsiyalashi lozim, amalda esa faqat 50% gina rahbar buni bajargan);*

Filiallar kesimida Jamiyatda aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi va qabul qilingan choralar bo‘yicha, shu jumladan umumiy soni va toifalar kesimida *(masalan, xarid protseduralaridagi, ish bo‘yicha bevosita bo‘ysunish natijasida va shu kabilarda)* tahliliy ma’lumotlarni keltirish lozim.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Jamiyat sharnomalariga kiritish

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni tashkilotning xo‘jalik shartnomalariga (shartnomalarning foizli nisbati) kiritish bo‘yicha, shu jumladan markaziy apparat va filiallar kesimidagi kontragentlar tahririda tahliliy ma’lumotlarni keltirish, kontragentlarning korrupsiyaga qarshi qoidalarni shartnomalarga kiritishni rad etish sabablarini ko‘rsatish;

Markaziy apparat va filiallar kesimida tashkilot tizimida kontragent tomonidan korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilishi sababli shartnomalarni bekor qilish bo‘yicha tahliliy ma’lumotlarni ko‘rsatish.

Kontragentlarni tekshirish

Hisobot davrida kontragentlar bo‘yicha o‘tkazilgan tekshiruvlar soni, ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbati markaziy apparat va filiallar kesimida ko‘rsatiladi.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Markaziy apparat va filiallar kesimidai tashkilot tizimiga ishga kirish uchun nomzodlar ustidan o‘tkazilgan tekshiruvlar soni ko‘rsatiladi.

V. Ta’lim va kommunikatsiya

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘qitishning natijalarini markaziy apparat va filiallar kesimida:

o‘qitilgan xodimlarning foizdagi nisbati, ta’lim shakli (bevosita/onlayn) ko‘rsatiladi;

Markaziy apparat va filiallar kesimida o‘qitish darajasi past bo‘lgan korrupsiyaga qarshi ko‘nikmalarga oid axborot ko‘rsatiladi (rejalashtirilgan ko‘rsatkichlarga taqqoslangan holda);

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha kommunikatsiya turlari va sonini filiallar kesimida (masalan, tarqatmalar, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazish) ko‘rsatiladi;

Bo‘limda shuningdek, tashkilot tizimida o‘tkazilgan keng ko‘lamli alohida tadbirlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

VI. Korrupsiyaviy harakatlar va qonun buzilishlar haqidagi ma’lumotlar

Hisobot davrida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog‘liq masalalar to‘g‘risidagi aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlar markaziy apparat va filiallar kesimidai ko‘rsatiladi;

Mansab vazifalari va tartib-taomillar kesimida olingan tahliliy ma’lumotlar *(masalan, xaridlar jarayonida, kadrlarni ishga qabul qilish bilan bog‘liq tartib-taomillarda)* keltiriladi;

Olingan xabarlar bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar qoidabuzarliklar kesimida keltiriladi *(masalan, korrupsiyaviy xatti-harakatlar, manfaatlar to‘qnashuvi, kelishuv tartib-taomillarini protseduralarini buzish va boshqalar)*;

Olingan xabarlar bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar aloqa kanallari kesimida keltiriladi *(masalan, ishonch telefoni, bevosita xabar berish va boshqalar)*.

VII. Monitoring va nazorat

Markaziy apparat va filiallar kesimida hisobot davrida tashkilot tizimi tomonidan mavjud korrupsiyaga qarshi talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillarning bajarilgani to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar keltiriladi, shu jumladan tekshiruvlar o‘tkazilgan tashkilotlar soni, shuningdek, tekshiruv o‘tkazilgan vazifalar va tartib-taomillarining davriyligi va xarakteri to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar (rejadagi, rejadan tashqari) ko‘rsatiladi;

Filiallar kesimida tekshiruvlar o‘tkazilmagan bo‘linmalar soni alohida ko‘rsatiladi, ilovada ularning nomi hamda tekshiruvlar o‘tkazilmaganligining asosiy sabablari qisqacha qayd etiladi;

O‘tkazilgan tekshiruvlar natijalari to‘g‘risidagi umumiy axborot ko‘rsatiladi shu jumladan, ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbati qayd etiladi. Qoidabuzarliklar mavjud bo‘lsa, mazkur hisobotning VIII-bo‘limga havola beriladi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta’sir choralari

Jamiyat va uning filiallarida korrupsiyaga qarshi taomillar, talablar va taomillarning buzilishi to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar ko‘rsatilsin, shu jumladan:

- Qonun buzilishlarining umumiy soni;

- Qonun buzilishlari to‘g‘risidagi xabarlar manbalari bo‘yicha ularning tuzilmasini (“ishonch telefoni”, to‘g‘ridan-to‘g‘ri rahbariyatni xabardor qilish, Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xabardor qilish, muntazam monitoring va nazoratning natijalari va boshqalar);

- Qonun buzilishlarining jarayonlar bo‘yicha tuzilmasini (xaridlar, sotishlar, kadrlar masalalari, sovg‘alar va rasmiy mehmondorchilik belgilari, vakillik xarajatlari, xayriya va homiylik faoliyat va boshqalar);

- qonun buzilishlarining asosiy turlari bo‘yicha ularning tuzilmasi (korrupsiyaviy harakat, manfaatlar to‘qnashuvi, Jamiyat va uning filiallarining ichki normativ hujjatlarida nazarda tutilgan kelishish taomillarining buzilishi va boshqalar).

Jamiyat va uning filiallarida munosabat bildirishga doir qabul qilingan choralar to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar ko‘rsatilsin, shu jumladan:

- Tadbirlarning umumiy soni va aniqlangan barcha qonun buzilishlar bo‘yicha munosabat bildirish choralari qabul qilingan yoki qilinmaganligi;

- Munosabat bildirish choralarining turlari bo‘yicha tahliliy ma’lumot (aybdorlarni javobgarlikka tortish, shu jumladan, javobgarlik turlari kesimida; jarayonlar hamda jamiyatning ichki normativ hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish; boshqalar), shu jumladan qonun buzilishlariga yo‘l qo‘ymaslik uchun qanday tadbirlarni joriy etilishi taklif etilayotganligi va hisobot davrida qanday tadbirlar joriy etilganligini ko‘rsatilsin zarur.

IX. Xulosalar

Jamiyat va uning filiallarida korrupsiyaga qarshi choralarni amalga oshirishning asosiy natijalari ko‘rsatiladi, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holatiga umumiy baho beriladi. Zaruriyatga ko‘ra avvalgi davrlardagi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslama tahlil o‘tkaziladi, qoniqarli natijalarga erishganlik yoki erishmaganlik sabablari qayd etiladi.

X. . Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasi

Keyingi hisobot davrida Jamiyat va tizim tashkilotlarida hisobotning ayrim elementlarining ko‘rsatkichlarini yaxshilashga imokiniyat beradigan asosiy tadbirlar ko‘rsatiladi.

Axborot ma’lumotlari

Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati tomonidan **ishlab chiqilgan**

Xizmat boshlig‘i A.Z. Raxmonov

Kelishilgan

Boshqaruv raisining
birinchi o‘rinbosari B.X. Murodov

Boshqaruv raisining
birinchi o‘rinbosari S.S. Artikov

Boshqaruv raisining investitsiyalar
bo‘yicha o‘rinbosari F.M. Qurbonov

Boshqaruv raisining moliyaviy-iqtisodiy
masalalar bo‘yicha o‘rinbosari A.A. Yuldashev

Iqtisodiyot va rejalashtirish
boshqarmasi boshlig‘i P.N. Xidirov

Buxgalteriya hisobi va hisobotlari boshqarmasi
bosh buxgalteri S.N. Xolboyev

Xaridlar transformatsiya
ofisi boshlig‘i T.A. Rasulov

Sanoatda kooperatsiya aloqalarini
kengaytirish, mahalliylashtirish
va standartlashtirish bo‘limi boshlig‘i I.M. Begaliyev

Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantirish
boshqarmasi boshlig‘i I.I. Xamidov

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha
boshqaruv raisi maslahatchisi O.A. To‘xtashev

Yuridik boshqarmasi boshlig‘i Sh.S. Axmedov

Norma nazoratchisi L.B. G‘oziyeva